

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№3

2026
MART



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 214 sahifa.
2026-yil, mart

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

KORXONALARDA ICHKI AUDIT TIZIMINING BOSHQARUV QARORLARI QABUL QILISHDAGI O'RNI	24
Mexmonaliyev Ulug'bek Erkinjon o'g'li	
FISKAL SIYOSAT SAMARADORLIGI VA SOLIQ TUSHUMLARI DINAMIKASI: O'ZBEKISTON MISOLIDA ILMIY TAHLIL	30
Abduraimova Nigora Abdugapparovna	
YASHIRIN IQTISODIYOTNI KELITIRIB CHIQUARUVCHI ASOSIY OMILLAR HAMDA IQTISODIYOTGA TA'SIRI	37
Toxtabayev Oybek Odilovich	
QISHLOQ XO'JALIGI OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARIDA ZAMONAVIY BOSHQARUV	42
Rasulova Muxabbat Teshabayevna, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	
O'ZBEKISTON GLOBAL-IQTISODIY RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING O'RNI	48
Kuvatova Oliya Sheraliyevna	
QURILISH SANOATIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING IQTISODIY MOHIYATI VA ULARNI KAPITAL BOZORI INSTRUMENTLARI ORQALI MOLIALASHTIRISH IMKONIYATLARI.....	54
Igitov Jurabek Kuzibekovich	
IQTISODIY ISLOHOTLAR DAVRIDA TIJORAT BANKLARINING INVESTITSIYA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING OMILLARI	61
Yangiboyev F.B.	
TIJORAT BANKLARIDA MUAMMOLI KREDITLARNI ERTA ANIQLASH VA BOSHQARISHNING INTEGRATSIYALASHGAN RISK-INDEKS MODEL I	68
Kalandarov Abdulla Baxtiyorovich, Rajabov Shoxrux Suvon o'g'li	
RUX VA QO'RG'OSHINNI SELEKTIV AJRATIB OLISHNI KOMBINATSIYALASH TEXNOLOGIYASI VA NAZARIYASI.....	74
Eshonqulov Uchqun Xudaynazar o'g'li, Haqberdiyev Dilshod Qodir o'g'li	
UY-JOY QURILISHI HAJMINI UZOQ MUDDATLI PROGNOZLASHDA EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH	81
Qidirniyazov Ajiniyaz Sherniyazovich	
O'ZBEKISTONDA BOG'DORCHILIKNI RIVOJLANTIRISHDA IQLIM VA TABIIY OFATLAR NATIJASIDA YETKAZILDAN TALOFATLARNI DAVLAT TOMONIDAN KOMPENSATSIYA QILISH MEKANIZMI.....	85
Sattorov Orifjon Boymurodovich	
AHOLI MOLIVAVIY SAVODXONLIGINI OSHIRISH ORQALI YASHIRIN IQTISODIYOTNI QISQARTIRISH MEKANIZMLARI.....	90
Abdug'aniyev Uchqun Habibulla o'g'li	
O'ZBEKISTON QURILISH SANOATIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING RIVOJLANISH DINAMIKASI VA TENDENSIYALARI	96
Musaeva Aynura Abayxolievna	
THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF SOCIAL INFRASTRUCTURE TRANSFORMATION IN THE CONTEMPORARY ENVIRONMENT.....	104
Normurodov Khusan Eshmakhmatovich	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARINING INVESTITSION FAOLLIGINI BAHOLASH YO'LLARI	108
Begamov S.X.	
DEBITORLIK QARZLARINING STRATEGIK BOSHQARUV HISOBINI TASHKIL QILISH YO'NALISHLARI	112
Normatova Gulmira Xayrullaevna	



SOLIQLARNI PROGNOZLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH AMALIYOTI TAHLILI.....	118
Ergashov Jamshid Ashurovich	
MEHNAT XARAJATLARI HISOB: NAZARIY ASOSLAR, USULLAR VA BOSHQARUVDA AHAMIYATI.....	126
Tulyaganov Abdumalik Abdiraximovich	
KORPORATIV XIZMATLARNING BANK FOYDASIGA TA'SIRI: KOMISSION VA FOIZLI DAROMADLAR TAHLILI	131
Qurbonov Abror Abdullayevich	
TIJORAT BANKLARIDA MUAMMOLI KREDITLARNI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING INSTITUTSIONAL VA TASHKILY MEXANIZMLARI	136
Djamalov G'ofir Oribjanovich	
OCHIQLIK INDEKSI VA KORRUPTSIYAGA QARSHI KURASH SAMARADORLIGI: O'ZBEKISTON TAJRIBASINING INSTITUTSIONAL TAHLILI	144
Dilshod Pulatov, Uchqun Abdug'aniyev	
DUNYO SUG'URTA KOMPANIYALARINING MOLIVAVIY HOLATI VA NATIJALARI TAHLILI	153
Alimov Baxodir Batirovich	
QISHLOQ HUDUDLARIDA XIZMAT KO'RSATISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI.....	160
Yuldashova Nilufar Ziyabayevna	
QURILISH TASHKILOTLARIDA BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING INNOVATSION USULLARI	164
Muxibova Guli Yarkinovna, Sharifxodjayeva Odina Ulug'bek qizi	
AXBOROT-RESURS MARKAZLARINING TALIM JARAYONIGA TA'SIRINI BAHOLASH	168
Pirmedova Xayitgul Muxammedovna	
IJTIMOY HIMOYA QAMROVINI KENGAYTIRISH MEXANIZMLARI: XALQARO TAJRIBA VA INSTITUSIONAL YONDASHUVLAR	173
Bafoyev Farrux Jo'raqulovich	
KORXONALARDA AI-DRIVEN "DECISION SUPPORT SYSTEMS" (DSS)NI JORIY ETISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI	181
Mardanova Ra'no	
STRENGTHENING THE FINANCING OF FAMILY-OWNED ENTERPRISES IN UZBEKISTAN THROUGH BANK CREDIT	186
Baymurotova Zina Aqilbekovna, Ibadullaeva Asal Ulugbek qizi	
SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA DAVLAT BOSHQARUV TIZIMLARINI RAQAMLASHTIRISH	192
Aytmuratov Qutlimurat Jalgasovich	
ATTRACTING INVESTMENTS FROM FINANCIAL MARKETS AND FACTORS INFLUENCING THE INCREASE OF THEIR ATTRACTIVENESS	196
Kholov Sherali Akhrorboyevich	
MARKAZIY OSIYODA TRANSCHEGARAVIY SUV RESURSLARINI BOSHQARISH VA ADOLATLI TAQSIMLASHNING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI.....	200
Matkarimov Mansur	
XALQARO XIZMATLAR SAVDOSIDA TIBBIY TURIZMNING IQTISODIY AHAMIYATI.....	206
Farxodova Shohnova Umidbek qizi	



UO'K: 339.5.053.7

XALQARO XIZMATLAR SAVDOSIDA TIBBIY TURIZMNING IQTISODIY AHAMIYATI

Farxodova Shohnoza Umidbek qizi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti,
Tashqi iqtisodiy faoliyat kafedrası o'qituvchisi
farkhodovashokhnoza@gmail.com
ORCID: 0009-0007-0176-2751

Annotatsiya. Maqolada xalqaro xizmatlar savdosida tibbiy turizmning iqtisodiy ahamiyati tahlil qilinadi. Tibbiy turizmning global savdo tizimidagi o'rnini va uning mamlakatlar iqtisodiyotiga ta'siri ko'rib chiqiladi. Tadqiqotda GATS shartnomasi, Jahon Savdo Tashkiloti, BMT va boshqa xalqaro iqtisodiy tashkilotlar ma'lumotlaridan foydalanilgan. Shuningdek, statistik tahlil, komparativ va trendlar usuli qo'llanilgan. Natijalar tibbiy turizmning investitsiyalar, ish o'rinlari va xizmatlar eksporti orqali iqtisodiy foyda keltirishini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: tibbiy turizm, xalqaro xizmatlar savdosi, iqtisodiy ahamiyat, GATS, investitsiyalar, eksport, ish o'rinlari.

Abstract. The article analyzes the economic significance of medical tourism in international trade in services. The role of medical tourism in the global trade system and its impact on the economies of countries are considered. The study uses data from the GATS agreement, the World Trade Organization, the UN and other international economic organizations. Statistical analysis, comparative and trend methods are also used. The results show that medical tourism brings economic benefits through investments, jobs and exports of services.

Keywords: medical tourism, international trade in services, economic significance, GATS, investment, export, employment.

Аннотация. В статье анализируется экономическое значение медицинского туризма в международной торговле услугами. Рассматривается роль медицинского туризма в глобальной торговой системе и его влияние на экономику стран. В исследовании используются данные ГАТС, Всемирной торговой организации, ООН и других международных экономических организаций. Также применяются статистический анализ, сравнительные и трендовые методы. Результаты показывают, что медицинский туризм приносит экономические выгоды за счет инвестиций, рабочих мест и экспорта услуг.

Ключевые слова: медицинский туризм, международная торговля услугами, экономическое значение, GATS, инвестиции, экспорт, рабочие места.

KIRISH

XXI asrda jahon xo'jaligi tizimida xizmatlar savdosining ulushi barqaror oshib borayotgan bo'lib, ushbu jarayonda sog'liqni saqlash bilan bog'liq xizmatlar, xususan, tibbiy turizm global iqtisodiy rivojlanishning muhim drayverlaridan biriga aylanmoqda. Jahon Savdo Tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, xalqaro xizmatlar savdosi tarkibida sog'liqni saqlash va turizm xizmatlari eng tez rivojlanayotgan yo'nalishlar qatoriga kiradi. Tibbiy turizm nafaqat sog'liqni saqlash tizimining modernizatsiyasi, balki valyuta tushumlarini oshirish, xizmatlar eksportini kengaytirish, yangi ish o'rinlarini yaratish hamda milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini kuchaytirish imkonini beruvchi kompleks iqtisodiy hodisa sifatida namoyon bo'lmoqda.

Globalizatsiya, transport-logistika tizimlarining rivojlanishi, raqamli texnologiyalarning joriy etilishi hamda sog'liqni saqlash xizmatlari narxlaridagi xalqaro tafovutlar tibbiy turizm oqimlarining keskin ortishiga sabab bo'lmoqda. Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlarda yuqori texnologiyali, murakkab tibbiy xizmatlar eksporti ustunlik qilsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda nisbatan arzon, biroq sifat jihatidan raqobatbardosh tibbiy xizmatlar asosiy afzallik sifatida namoyon bo'lmoqda. Natijada tibbiy turizm xalqaro xizmatlar savdosida mustaqil va strategik ahamiyatga ega bo'lgan sektor sifatida shakllanmoqda.



Zamonaviy jahon xo'jaligi tizimida xizmatlar savdosi xalqaro iqtisodiy munosabatlarning eng dinamik rivojlanayotgan segmentlaridan biri hisoblanadi. Globallashuv jarayonlari, ishlab chiqarishning xalqaro ixtisoslashuvi hamda bilim va texnologiyalarga asoslangan iqtisodiyotning shakllanishi natijasida xizmatlar savdosi moddiy mahsulotlar savdosidan farqli ravishda yuqori qo'shimcha qiymat yaratish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Ushbu jarayonda sog'liqni saqlash bilan bog'liq xizmatlar, xususan, tibbiy turizm xalqaro xizmatlar savdosining muhim tarkibiy qismi sifatida shakllanib, milliy iqtisodiyotlar rivojlanishida sezilarli iqtisodiy ahamiyat kasb etmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

DeMicco, Cetron va Deviesning (2019) ta'kidlashicha: "Tibbiy turizm nafaqat bozor segmenti, balki u xarajatlar farqi, sifatli tibbiy xizmat va bemorlarning chegaralar bo'ylab erkin harakati bilan boshqariladigan global sanoatga aylandi". Mazkur fikr tibbiy turizmning global miqyosda mustaqil sanoat tarmog'iga aylanganini strategik rejalashtirishning zamonaviy nazariy asoslaridan kelib chiqqan holda asoslab beradi.

World Travel & Tourism Council (2024) xabar berishicha: "Sayohat va turizm sektori 2023-yilda jahon yalpi ichki mahsulotiga 9,1 foiz hissa qo'shdi, dunyo bo'ylab 295 million ish o'rnini qo'llab-quvvatladi, bunda sog'liq saqlash turizmi eng tez rivojlanayotgan quyi tarmoqlar qatorida turadi". Ushbu ma'lumotlar turizm sektorining, xususan, tibbiy turizmning jahon iqtisodiyotidagi salmoqli o'rnini raqamlar orqali yaqqol ko'rsatib beradi.

Deb (2024) o'z tadqiqotida qayd etishicha: "2023-yilda taxminan 21 dan 26 milliongacha kishi tibbiy maqsadlarda xalqaro sayohat qildi, har bir tashrif uchun o'rtacha 3 500 dollar sarflandi, bu tibbiy turizmni global miqyosda xizmatlar eksportining eng daromadli toifalari qatoriga kiritdi". Mazkur statistik ma'lumotlar tibbiy turizmning xizmatlar eksporti sifatidagi iqtisodiy salohiyatini aniq raqamlar orqali ifodalab, sohaning barqaror o'sish dinamikasiga ega ekanligini tasdiqlaydi.

Medical Tourism Association (2024) ma'lumotlariga ko'ra, "Xalqaro akkreditatsiyaga sarmoya kiritgan, viza jarayonlarini soddalashtirgan va tibbiy turizmni maqsadli ravishda targ'ib qilgan mamlakatlar tibbiy sayyohlarning kelishida yiliga 30 foizgacha o'sishga erishdi". Bu fikr tibbiy turizmni rivojlantirishda institutsional omillar, xususan, akkreditatsiya, davlat siyosati va xalqaro marketingning hal qiluvchi ahamiyatini empirik dalillar asosida isbotlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning metodologiyasi quyidagilar ibora bo'lib, xalqaro savdoda tibbiy turizm xizmatlarining ochib berishda tahlil, sintez, qiyoslash, tizimli yondashuv va mantiqiy umumlashtirish usullari muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, xizmatlar savdosining xalqaro tartibga solinishini tahlil qilishda Xizmatlar savdosining umumiy bitimi (GATS) doirasidagi kontseptual yondashuvlar asos qilib olindi.

Statistik va empirik tahlil metodologiyasi nuqtai nazaridan, tadqiqotda mavjud ikkilamchi ma'lumotlar bazalariga tayanildi. Xususan, World Travel & Tourism Council (WTTC) ning iqtisodiy ta'sir bo'yicha yillik tadqiqotlari tibbiy turizmning global miqyosdagi hajmini va milliy iqtisodiyotlarga ta'sirini baholashda muhim manba sifatida ishlatildi. Shuningdek, 2019–2024 yillar davri uchun nashr etilgan rasmiy statistik ma'lumotlar, xalqaro tashkilotlar hisobotlari va ilmiy-amaliy adabiyotlar tanlab olingan. Shu tarzda tadqiqot natijalari hozirgi zamon xalqaro xizmatlar savdosining real holatini va tibbiy turizmning unda tutgan o'rnini aks ettiradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Xalqaro xizmatlar savdosining shakllanishi va rivojlanishi jahon iqtisodiyoti taraqqiyotining muhim bosqichlari bilan uzviy bog'liqdir. XX asrning ikkinchi yarmiga qadar xalqaro savdoda asosiy e'tibor moddiy mahsulotlar almashinuviga qaratilgan bo'lib, xizmatlar savdosi mustaqil iqtisodiy kategoriya sifatida yetarli darajada e'tirof etilmagan. Ayniqsa, 1960–1980-yillar oralig'ida xalqaro xizmatlar bozori fragmentar va tartibga solinmagan holatda bo'lib, xizmatlar savdosi asosan transport, moliya va turizm bilan cheklangan edi. Ushbu davrda xizmatlar ko'p hollarda tashqi savdo statistikasi va savdo kelishuvlarida ikkilamchi ahamiyatga ega bo'lgan soha sifatida qaraldi.

Biroq ilmiy-texnik taraqqiyot, transmilliy korporatsiyalarning faoliyati kengayishi hamda xizmatlar sektorining yalpi ichki mahsulotdagi ulushining oshishi natijasida 1980-yillardan boshlab xalqaro xizmatlar bozori jadal rivojlana boshladi. Xizmatlarning intellektual va bilimga asoslangan xarakter kasb etishi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi xizmatlar savdosining geografik chegaralarini kengaytirdi va ularni xalqaro iqtisodiy munosabatlarning muhim tarkibiy qismiga aylantirdi. Natijada xizmatlar savdosini xalqaro miqyosda tartibga solish zarurati yuzaga keldi.

Mazkur ehtiyoj 1986–1994-yillarda o'tkazilgan Urugvay raundi doirasida xizmatlar savdosini tartibga soluvchi xalqaro huquqiy mexanizmning shakllanishiga olib keldi. Ushbu raund natijasida 1995-yilda Jahon

Savdo Tashkiloti doirasida Xizmatlar savdosi bo'yicha Bosh bitim (GATS) qabul qilindi¹. GATS xalqaro xizmatlar savdosini liberallashtirish, shaffoflikni ta'minlash va milliy rejim tamoyillarini joriy etishga qaratilgan dastlabki hujjat sifatida e'tirof etiladi.

GATS doirasida xizmatlar savdosini tizimlashtirish maqsadida 1991-yilda ishlab chiqilgan GNS/W/120 tasnifi alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu tasnifga muvofiq, xalqaro xizmatlar savdosi 12 ta yirik sektor va 160 dan ortiq xizmat turlarini o'z ichiga oladi. Mazkur sektorlar qatoriga biznes xizmatlari, aloqa xizmatlari, qurilish, ta'lim, moliya, sog'liqni saqlash, turizm va sayohat bilan bog'liq xizmatlar, transport va boshqa xizmatlar kiradi. Tibbiy turizm aynan sog'liqni saqlash xizmatlari hamda turizm xizmatlari kesishmasida joylashgan bo'lib, GATS doirasida muhim eksport yo'nalishi sifatida qaraladi.

Zamonaviy sharoitda xizmatlar bozori yanada murakkablashib, xizmat turlarining soni 600 dan ortiq yo'nalishni qamrab olmoqda. Xizmatlar savdosini tartibga solish va statistik hisobini yuritishda 40 dan ortiq xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar faol ishtirok etmoqda. Xalqaro Valyuta Jamg'armasi tomonidan ishlab chiqilgan to'lov balansi metodologiyasida xizmatlar savdosi 11 ta asosiy sektor doirasida tasniflanib, bu yondashuv xizmatlar eksporti va importini makroiqtisodiy tahlil qilish imkonini beradi.

O'zbek olimlarining² fikricha, xizmatlarni quyidagicha guruhlash to'g'ri bo'ladi:

- transport xizmatlari (fraxtni o'z ichiga oladi);
- moliyaviy xizmatlar (bank, birja va broker xizmatlari);
- sug'urta xizmati;
- huquqiy xizmat ko'rsatish;
- axborot-texnologiya, vositachilik xizmatlari;
- rekreatsion xizmatlar (turizm).

Xizmatlar savdosining iqtisodiy mohiyatini anglashda ularning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish muhim ahamiyatga ega. Xizmatlar moddiy mahsulotlardan farqli ravishda nomoddiy xarakterga ega bo'lib, ishlab chiqarish va iste'mol jarayoni ko'pincha bir vaqtda amalga oshiriladi. Bundan tashqari, xizmatlarni zaxiralash imkoniyati cheklangan bo'lib, ularning sifati ko'rsatish jarayoniga bevosita bog'liqdir. Ushbu xususiyatlar xizmatlar savdosini tartibga solishda alohida yondashuvni talab etadi.

Xalqaro iqtisodiy tahlilda xizmatlar sotiladigan va sotilmaydigan xizmat turlariga bo'linadi. Sotiladigan xizmatlar xalqaro bozorga chiqarilishi mumkin bo'lgan, eksport va import obyekti hisoblangan xizmatlarni ifodalaydi. Tibbiy turizm aynan ushbu toifaga kirib, xizmatlar eksportining muhim shakli sifatida namoyon bo'ladi. Sotilmaydigan xizmatlar esa asosan ichki bozorga yo'naltirilgan bo'lib, milliy chegaralardan tashqarida realizatsiya qilinmaydi.

Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, xizmatlar omilli va omilsiz xizmatlarga ajratiladi. Omilli xizmatlar ishlab chiqarish omillari, xususan, kapital, mehnat va texnologiyalar harakati bilan bevosita bog'liq bo'lib, ularning ko'rsatilishi yuqori malakali kadrlar va investitsiyalarni talab etadi. Tibbiy turizm yuqori darajada omilli xizmatlar qatoriga kiradi, chunki u malakali tibbiy kadrlar, zamonaviy texnologiyalar va rivojlangan infratuzilmani talab qiladi. Omilsiz xizmatlar esa kamroq resurs talab etib, asosan axborot va xizmat ko'rsatish jarayoniga asoslanadi.

GATS doirasida xizmatlarni amalga oshirish mexanizmlari to'rtta asosiy usul orqali ifodalanadi, xususan, transchegaraviy xizmat ko'rsatish, xorijda iste'mol qilish, tijorat ishtiroki va jismoniy shaxslarning harakati. Jumladan, tibbiy turizm asosan xorijda iste'mol qilish mexanizmi orqali amalga oshiriladi, ya'ni xizmat iste'molchisi davolanish maqsadida xizmat ko'rsatuvchi mamlakat hududiga tashrif buyuradi. Shu bilan birga, tijorat ishtiroki mexanizmi orqali xorijiy klinikalar va tibbiy markazlarning tashkil etilishi ham tibbiy turizm rivojida muhim o'rin tutadi.

Shunday qilib, xalqaro xizmatlar bozori evolyutsiyasi, GATS doirasida xizmatlar savdosining institutsionallashuvi hamda xizmatlar tasnifi va amalga oshirish mexanizmlarining shakllanishi turizmning xalqaro xizmatlar savdosidagi o'rnini ilmiy jihatdan asoslash imkonini beradi.

Jahon Sayohat va Turizm Kengashi (WTTC) ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yil global turizm rivoji nuqtayi nazaridan tarixiy ahamiyat kasb etib, soha pandemiyadan keyingi tiklanish bosqichini ortda qoldirib, sifat jihatidan yangi rivojlanish darajasiga ko'tarildi. Mazkur davrda turizmning jahon iqtisodiyotiga qo'shgan umumiy hissasi qariyb 10 trillion yevroga yetib, global yalpi ichki mahsulotning 10,3 foizini tashkil etdi³. Bu ko'rsatkich 2024-yilga nisbatan 6,7 foiz o'sishni anglatadi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, bir yil davomida 1,5 milliarddan ortiq xalqaro sayohatlar amalga oshirilgan bo'lib, bu o'tgan yilga nisbatan 80 millionga ko'proqdir. Kunlik o'rtacha xalqaro tashriflar soni 219 mingdan

1 Jahon Savdo Tashkiloti huquqiy hujjatlar bazasi. https://www.wto.org/english/docs_e/legal_e/legal_e.htm#services [accessed in: 08.02.2026.]

2 Alimov A., Maxmudov E., Xaydarov N. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar. Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik. – Toshkent: "Zilol buloq nashriyoti". 2020. – B. 105-106.

3 <https://ru.euronews.com/travel/2026/01/15/2025-was-the-best-year-in-the-history-of-tourism-globally>



oshgan. Shuningdek, global miqyosda band aholining sezilarli qismi turizm sektori bilan bog'liq bo'lib, iqtisodiy faoliyatning mazkur yo'nalishi bandlikni ta'minlashda muhim rol o'ynamoqda.

O'sish sur'atlari dunyoning aksariyat davlatlarida qayd etilgan bo'lib, bu turizm sektorining yuqori darajadagi moslashuvchanligi va barqarorligini tasdiqlaydi. Biroq ayrim mamlakatlarda, xususan, Amerika Qo'shma Shtatlarida xorijiy sayyohlar xarajatlarining qisqarishi kuzatilgan.

Butunjahon Turizm Tashkilotining sobiq bosh kotibi Zurab Pololikashvili ta'kidlashicha, "Dunyo bo'ylab, har qanday rivojlanish darajasidagi mamlakatlarda, millionlab ish o'rinlari va korxonalar kuchli hamda rivojlangan turizm sohasiga bog'liqdir. Turizm, shuningdek, tabiiy va madaniy merosni himoya qilishda harakatlantiruvchi kuch bo'lib, ulardan kelajak avlodlar bahramand bo'lishlari uchun saqlab qolmoqda⁴." Darhaqiqat, XXI asrda turizm – jahon iqtisodiyotining ajralmas bir bo'lagi bo'lib, zamonaviy jamiyatda butun dunyo bo'ylab serdarmad sohalardan biridir. Iqtisodiyotning raqamlashuvi sharoitida O'zbekistonda turizm sanoatini rivojlantirish zaruriy ehtiyojga aylanmoqda.

Kelgusida turizmning barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun xalqaro mobillikni soddalashtirish, davlatlar o'rtasidagi viza tartib-taomillarini optimallashtirish hamda ma'muriy to'siqlarni kamaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy sharoitda turizm nafaqat dam olish va sayohat sohasi, balki jahon iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismi, bandlikni ta'minlovchi hamda xalqaro iqtisodiy hamkorlikni mustahkamlovchi strategik sektor sifatida namoyon bo'lmoqda. Ushbu jarayonlarda turizm xizmatlari, jumladan, tibbiy turizmni zamonaviy jahon iqtisodiyotining strategik va yuqori qo'shimcha qiymat yaratuvchi sektori sifatida namoyon etadi.

Tibbiy turizm iqtisodiy mazmuniga ko'ra sog'liqni saqlash xizmatlarining xalqaro miqyosda ko'rsatilishi va ushbu xizmatlarning turizm infratuzilmasi bilan integratsiyalashuvi natijasida yuzaga keladigan murakkab xizmatlar majmuasini ifodalaydi. Bunda xorijiy bemorlarning davolanish, diagnostika, reabilitatsiya va sog'lomlashtirish maqsadida boshqa mamlakatlarga safar qilishi natijasida xizmatlar eksporti shakllanadi. Mazkur jarayon tibbiy turizmni xalqaro xizmatlar savdosining mustaqil va iqtisodiy jihatdan samarali yo'nalishiga aylantiradi.

Xalqaro xizmatlar savdosi nuqtayi nazaridan tibbiy turizmning asosiy iqtisodiy ahamiyati, avvalo, xizmatlar eksporti hajmini oshirish orqali valyuta tushumlarini ko'paytirishda namoyon bo'ladi. Tibbiy xizmatlar, ayniqsa yuqori texnologiyali va murakkab muolajalar yuqori qiymatga ega bo'lib, ularning eksporti milliy to'lov balansining xizmatlar bo'limida ijobiy saldo shakllanishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, tibbiy turizm turizm xizmatlari, mehmonxona xo'jaligi, transport, sug'urta, ovqatlanish va boshqa bog'liq sohalarda qo'shimcha talabni yuzaga keltirib, multiplikativ iqtisodiy ta'sirni kuchaytiradi.

Tibbiy turizmning xalqaro xizmatlar savdosidagi ahamiyati uning bandlik darajasini oshirishdagi roli bilan ham belgilanadi. Tibbiy muassasalar, diagnostika markazlari, reabilitatsiya klinikalari hamda ularga xizmat ko'rsatuvchi infratuzilma obyektlari yuqori malakali kadrlar bilan bir qatorda xizmat ko'rsatish sohasida yangi ish o'rinlarini yaratadi. Bu esa mehnat bozori barqarorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, inson kapitalini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, tibbiy turizm xalqaro investitsiyalarni jalb qilish uchun muhim omil hisoblanadi. Xorijiy investorlar tomonidan zamonaviy klinikalar, sog'lomlashtirish markazlari va tibbiy xizmatlarga ixtisoslashgan turistik majmualar barpo etilishi natijasida milliy sog'liqni saqlash tizimi modernizatsiyalanadi. Bu jarayon tibbiyot sohasida innovatsion texnologiyalarni joriy etish, xizmatlar sifati va raqobatbardoshligini oshirish imkonini beradi. Natijada tibbiy turizm nafaqat xizmatlar savdosini kengaytiradi, balki iqtisodiyotning texnologik yangilanishiga ham turtki bo'ladi.


Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, tibbiy turizm rivojlangan mamlakatlarda yuqori texnologiyali xizmatlar eksporti orqali, rivojlanayotgan mamlakatlarda esa nisbatan past narx va yetarli sifat kombinatsiyasi asosida shakllanadi. Bu holat xalqaro xizmatlar savdosida mamlakatlarning nisbiy ustunliklari va raqobat strategiyalarini aniqlashda tibbiy turizm muhim iqtisodiy indikator sifatida namoyon bo'lishini ko'rsatadi. Shu jihatdan, tibbiy turizm mamlakatlarning global xizmatlar bozorida o'rnini mustahkamlashda strategik ahamiyatga ega.

Bundan tashqari, tibbiy turizm xizmatlar savdosining institutsional rivojlanishiga ham ta'sir ko'rsatadi. Xalqaro akkreditatsiya tizimlari, tibbiy sug'urta mexanizmlari, vizaviy tartib-taomillarning soddalashtirilishi hamda davlat tomonidan eksportni qo'llab-quvvatlash choralari ushbu sohaning samaradorligini oshiradi. Natijada tibbiy turizm davlatning tashqi iqtisodiy siyosati va xizmatlar eksporti strategiyasining muhim yo'nalishlaridan biriga aylanadi.

Daromadi o'rta va undan yuqori bo'lgan mamlakatlar aholisining bo'sh vaqti uzayishi sayohat qilishga bo'lgan ehtiyojning oshishiga va bu esa o'z navbatida, alternativ turizm turlariga nisbatan talabning kelib qilishiga turtki bo'ldi. Inson qiziqishlari chegara bilmaydigan hozirgi zamonaviy jamiyatda turizmning maqsadi va noodatiy turlari ommalasha boshladi. Turizm maqsadidan kelib chiqqan holda bir necha turlarga ajraladi,

4 Pololikashvili, Z. Message by the UN Tourism Secretary-General, Zurab Pololikashvili [Elektron resurs] // UNWTO News. – 2020. – URL: <https://www.unwto.org/un-tourism-news-special-edition-world-tourism-day-2020> [murojaat qilingan sana: 19.12.2025]

misol tariqasida, ziyorat turizmi, biznes turizm, tadbirlar turizmi, ekoturizm, tibbiy turizm, tarixiy-madaniy turizm, agroturizm, qishloq turizmi, sport turizm, shopping turizm, inkluziv turizm va boshqalarni keltirish mumkin. Turizm keng tarmoqli soha bo'lib, sanab o'tilgan turizm turlari XXI asrdagi talab darajasidagi alternativlardandir. Ularning har biri taklif etiladigan turistik xizmatlariga ko'ra turli darajada iqtisodiy daromad, ijtimoiy manfaat, siyosiy barqarorlik, individual foyda keltiradi.



1-rasm. 1961–2022-yillarda xizmatlar sektorining yalpi ichki mahsulotdagi hajmi (AQSh dollari hisobida, Top-10 mamlakatlar)

Manba: FAO Aquastat, Food and Agriculture Organization of the United Nations (FAO)

1-rasmda 1961–2022-yillar davomida jahon iqtisodiyotida yetakchi bo'lgan o'nta mamlakatda xizmatlar sektorining yalpi ichki mahsulotga qo'shgan hissasi AQSh dollari hisobida ustunli diagramma ko'rinishida aks ettirilgan. Rasmda keltirilgan ma'lumotlar xalqaro statistik manba bo'lmish FAO Aquastat bazasi asosida shakllantirilgan bo'lib, xizmatlar sektorining uzoq muddatli dinamikasini tahlil qilish imkonini beradi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, xizmatlar sektorining iqtisodiyotdagi ulushi va mutlaq hajmi bo'yicha yetakchi o'rinni Amerika Qo'shma Shtatlari egallab kelmoqda. Ushbu mamlakatda xizmatlar sohasi yuqori texnologiyali, moliyaviy, tibbiy, ta'lim va biznes xizmatlarining jadal rivojlanishi hisobiga milliy iqtisodiyotning asosiy tayanch tarmog'iga aylangan. Bu holat AQShning xalqaro xizmatlar eksportida yetakchi pozitsiyani saqlab qolishiga xizmat qilmoqda.

Keyingi o'rinlarda Xitoy, Yaponiya va Germaniya joylashgan bo'lib, ushbu mamlakatlarda ham xizmatlar sektorining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi barqaror o'sish tendensiyasiga ega. Xususan, Xitoyda xizmatlar sohasi sanoat va eksportga yo'naltirilgan iqtisodiyotdan bosqichma-bosqich bilim va xizmatlarga asoslangan iqtisodiyotga o'tish jarayonini aks ettiradi. Qo'shma Qirollik va Fransiya kabi rivojlangan Yevropa mamlakatlarida xizmatlar sektorining yuqori darajada shakllangani kuzatiladi. Ushbu davlatlarda moliyaviy xizmatlar, turizm, sog'liqni saqlash va professional xizmatlar xalqaro bozorda raqobatbardosh eksport mahsuloti sifatida namoyon bo'lmoqda.

Rivojlanayotgan mamlakatlar qatorida Hindistonning xizmatlar sektoridagi o'sish sur'atlari alohida e'tiborga loyiq bo'lib, bu mamlakatda IT-xizmatlar, tibbiy turizm va autsorsing xizmatlari xalqaro xizmatlar savdosida muhim o'rin egallab bormoqda. Ushbu holat tibbiy turizm kabi yuqori qo'shimcha qiymat yaratuvchi xizmat turlarining jahon iqtisodiyotidagi ahamiyati tobora ortib borayotganini tasdiqlaydi hamda ularni xalqaro xizmatlar eksporti strategiyasining muhim yo'nalishi sifatida ko'rib chiqish zarurligini asoslaydi.

Butunjahon Turizm Tashkiloti fikricha, 2030-yilda tugaydigan yigirma yil ichida xalqaro sayyohlar soni yiliga o'rtacha 3,3% ga oshadi. Shu sur'atda davr oxirida 1,8 mlrd. turistlar rivojlanayotgan mamlakatlarga sayohat qilish ko'rsatkichi 4,4% ga o'sishi kutilmoqda, turizm sanoati rivojlangan mamlakatlarda esa bu atigi 2,2% bo'lishi mumkin⁵.

Jahon Sayohat va Turizm Kengashi (WTTC) 2018-yildan 2027-yilgacha sanoatning global yalpi ichki mahsulotga to'g'ridan-to'g'ri hissasi yiliga o'rtacha 4,0 foizga o'sishini bashorat qilmoqda⁶. Bu raqamlar tibbiy turizm yo'nalishi rivojlanishiga samarali zamin yaratib, tibbiy sayyohlar son va xizmatlar qiymati jihatidan umumiy sanoat kabi tez o'sishi kutilmoqda.

5 UNWTO. International tourists hit 1.8 billion by 2030 [Electronic resource]. – 11.10.2011. – URL: <https://www.unwto.org/archive/global/press-release/2011-10-11/international-tourists-hit-18-billion-2030> (accessed: 14.05.2024).

6 World Travel & Tourism Council (WTTC). Economic impact research [Electronic resource]. – URL: <https://wtcc.org/research/economic-impact> (accessed: 01.03.2024).



Xalqaro tibbiy turizm assotsiatsiyasi ma'lumotlariga ko'ra, har yili dunyo bo'ylab 14 milliondan ortiq bemorlar boshqa mamlakat hududiga davolanish maqsadida tashrif buyuradi. Tibbiyot turizmi butun dunyo bo'ylab doimiy rivojlanayotgan sohadir. Ayni damda tibbiy turizmdan eng ko'p foyda ko'rayotgan davlatlar Markaziy Yevropa, Osiyo va Janubiy Amerika mintaqalari bo'lib ular orasida Osiyo alohida o'rin tutmoqda.

"Patients Beyond Borders"ning tavsifiga asosan har yili taxminan 12-14 million bemor tibbiy sayohatni amalga oshiradi va ularning atigi o'ndan biri tibbiy davolanish uchun, qolgan 70% bemorlar esa kosmetik jarrohlik va boshqa shu kabi protseduralar uchun chegaralarni oshib o'tishadi⁷. 2019-yilda global tibbiy turizm bozori qiymati 44,8 milliarddan 104,68 milliard AQSh dollarigacha bo'lgan va 2027-yilga kelib, bu ko'rsatkich 273,72 milliard AQSh dollariga yetishi kutilmoqda.

Statistika ma'lumotlariga qaraganda, tibbiy turizm keskin rivojlanayotgan sanoat sifatida 2023-yilning o'zida 21-26 milliongacha bo'lgan insonlar davolanish uchun o'z mamlakatidan boshqa mamlakatga sayohat qilgan va har bir tashrif buyuruvchi o'rtacha hisobda 3,500 dollar miqdorda mablag' sarflagan⁸. Xalqaro turizm assotsiatsiyasi ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilda tibbiy turizmning jahon bozori 13,1 milliard dollarga yetdi. Bu ko'rsatkich 2032-yilga kelib deyarli uch baravar ko'payib, 35,9 milliard dollarga yetishi kutilmoqda. 2023-yildan 2032-yilgacha o'rtacha yillik o'sish sur'ati 12,20% ni tashkil etadi⁹.

Fortune Business Insights nashri hisobotlariga ko'ra, xalqaro tibbiy turizm bozori hajmi 2021-yilda 14 mlrd dollarni tashkil qilgan va ushbu raqamlar 2028-yilda 54,5 milliardga yetishi prognoz qilinayotgan edi. Jahon tibbiy turizm bozori hajmi 2024-yildagi 29,26 milliard dollardan 2032-yilga kelib 137,71 milliard dollargacha, yillik o'sish hajmining 21,4 foizga o'sishi prognoz qilinmoqda¹⁰. Taqdim etilgan statistik ma'lumotlar tibbiy turizm bozorining jadal sur'atlarda o'sib borayotganini yaqqol tasdiqlaydi. Xalqaro tibbiy turizm assotsiatsiyasi ma'lumotlari asosida aniqlangandek, har yili 14 milliondan ortiq bemor davolanish maqsadida xorijga safar qilmoqda, global bozor hajmi esa 2032-yilga kelib 35,9 milliard dollarga yetishi kutilmoqda. Fortune Business Insights prognozlari bo'yicha esa ushbu ko'rsatkich 137,71 milliard dollargacha oshishi ehtimoli mavjud bo'lib, bu tibbiy turizmning xalqaro xizmatlar savdosida mustahkam o'rin egallay boshlaganini ko'rsatadi. Mazkur raqamlar tibbiy turizmni xizmatlar eksportining eng tez rivojlanayotgan yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etish imkonini beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tibbiy turizm xalqaro xizmatlar savdosining nafaqat dinamik rivojlanayotgan, balki iqtisodiy jihatdan yuqori samaradorlikka ega bo'lgan strategik segmenti sifatida tobora muhim o'rin egallamoqda. GATS doirasidagi tasnifga muvofiq, tibbiy turizm xizmatlar savdosining xorijda iste'mol qilish mexanizmi orqali amalga oshiriladigan shakli sifatida xalqaro huquqiy tartibga solish tizimida mustahkam o'rin egallagan va milliy iqtisodiyotlar uchun muhim eksport yo'nalishiga aylangan.

Tadqiqot davomida tibbiy turizmning milliy iqtisodiyotlarga ko'rsatadigan ko'p qirrali ta'siri ham tahlil qilindi. Xususan, tibbiy turizm valyuta tushumlarini oshirish, xizmatlar eksportini kengaytirish, yangi ish o'rinlari yaratish va xorijiy to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb etish orqali milliy to'lov balansining yaxshilanishiga bevosita hissa qo'shishini ko'rish mumkin.

Rivojlangan mamlakatlar tibbiy turizmdan yuqori texnologiyali, murakkab tibbiy xizmatlar eksporti orqali daromad olayotgan bo'lsa, rivojlanayotgan mamlakatlar raqobatbardosh narx va maqbul sifat kombinatsiyasi asosida xalqaro bozorda munosib o'rin egallamoqda. Osiyo mintaqasi mamlakatlarining tibbiy turizm sohasidagi muvaffaqiyati esa rivojlanayotgan davlatlar uchun ham bu sohada raqobat qobiliyatini shakllantirish imkoniyati mavjudligini isbotlaydi. Xalqaro akkreditatsiya tizimlari, viza tartib-taomillarini soddalashtirish va davlat tomonidan eksportni qo'llab-quvvatlash choralari tibbiy turizm raqobatbardoshligini ta'minlashda muhim institusional omillar ekanligi tadqiqotda asoslandi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagi takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi:

birinchidan, tibbiy turizm infratuzilmasini rivojlantirishga qaratilgan davlat investitsiya dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish zarur;

ikkinchidan, xalqaro tibbiy akkreditatsiya standartlarini joriy etish orqali xizmatlar sifatini xalqaro mezon darajasiga ko'tarish lozim;

uchinchidan, tibbiy turizm xizmatlarini targ'ib qilishda raqamli platformalar va xalqaro marketing vositalaridan keng foydalanish maqsadga muvofiq;

7 DeMicco, F.J., Cetron, M., Davies, O. Strategic Planning Today and Tomorrow. – USA: In Kendall-Hunt Book. Iowa. 2019. – P. 2.

8 Deb, T. Medical Tourism Statistics 2024 by Landscape, Healthcare, Treatments [Electronic resource]. – URL: <https://media.market.us/medical-tourism-statistics> (accessed: 11.04.2024).

9 Current trends in the development of medical tourism [Electronic resource]. – URL: <https://www.medicaltourismassociation.com> (accessed: 21.03.2024).

10 Tibbiy Turizm Bozori [Electronic resource]. – URL: <https://www.fortunebusinessinsights.com/industry-reports/medical-turizm-bozor-100681> (accessed: 02.02.2025)



to'rtinchidan, tibbiy turizm sohasidagi xalqaro hamkorlik va ikki tomonlama bitimlarni kuchaytirish orqali xorijiy bemorlarni jalb etish mexanizmlarini takomillashtirish kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Alimov, A., Maxmudov, E. and Xaydarov, N. (2020) Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar. Toshkent: Zilol buloq nashriyoti, pp. 105–106.
2. Deb, T. (2024) Medical Tourism Statistics 2024 by Landscape, Healthcare, Treatments. [Online]. Available at: <https://media.market.us/medical-tourism-statistics> (Accessed: 11 April 2024).
3. DeMicco, F.J., Cetron, M. and Davies, O. (2019) Strategic Planning Today and Tomorrow. Iowa: Kendall-Hunt, p. 2.
4. Fortune Business Insights (2025) Medical Tourism Market Size, Share & Industry Analysis. [Online]. Available at: <https://www.fortunebusinessinsights.com/industry-reports/medical-turizm-bozor-100681> (Accessed: 2 February 2025).
5. Medical Tourism Association (2024) Current trends in the development of medical tourism. [Online]. Available at: <https://www.medicaltourismassociation.com> (Accessed: 21 March 2024).
6. Pololikashvili, Z. (2020) 'Message by the UN Tourism Secretary-General', UNWTO News, Special Edition: World Tourism Day 2020. [Online]. Available at: <https://www.unwto.org/un-tourism-news-special-edition-world-tourism-day-2020> (Accessed: 19 December 2025).
7. UNWTO (2011) International tourists hit 1.8 billion by 2030. [Online]. Available at: <https://www.unwto.org/archive/global/press-release/2011-10-11/international-tourists-hit-18-billion-2030> (Accessed: 14 May 2024).
8. World Trade Organization (2026) WTO Legal Texts: General Agreement on Trade in Services (GATS). [Online]. Available at: https://www.wto.org/english/docs_e/legal_e/legal_e.htm#services (Accessed: 8 February 2026).
9. World Travel & Tourism Council (WTTC) (2024) Economic Impact Research. [Online]. Available at: <https://wtcc.org/research/economic-impact> (Accessed: 1 March 2024).

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100